

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATION YONDASHUVLAR»**

MAHVUSUALA XALQARO I. MUNAQASHI ALG'IMASI



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi "2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli buyrug'i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'larni kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida "Ingliz tili nazariy aspektlari", "Ingliz tili va adabiyoti" hamda "Ingliz tili amaliyoti" kafedralari tomonidan "Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Mas'ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay'ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov

f.f.d.prof. M.I.Umarxo'djayev

PhD. dots. M.A.Qurbanov

f.f.d.prof. G'.M.Xoshimov

f.f.d.prof. V.A.Vositov

PhD. dots. M.G'.Xoshimov

p.f.n. prof. Sh.S.Alimov

PhD. G.M.Ibragimova

PhD. Q.Umrzakov

kafedra o'qituvchisi N.Xamidov

kafedra o'qituvchisi Z.No'monova

Tahrir nashriyoti bo'limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to'plam, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag'ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to'plamdan respublika va xorijiy oliy ta'lif muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrler va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'rilingiga mualliflarning o'zлari mas'uldirilar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Haqiqat usullari: Fukoning ta'kidlashicha, har bir jamiyatning o'ziga xos "haqiqat rejimi" bor - bu haqiqat va qonuniy deb qabul qilingan narsalarni belgilaydigan diskurslar majmuida o'z aksini topadi. Interdiskursivlik bu haqiqat rejimlari qanday yaratilgani va saqlanishini tushunish uchun kalit hisoblanadi. Masalan, ilmiy bilimlarning qonuniyligi uning ta'lif, huquqiy va iqtisodiy diskurslar bilan o'zaro ta'sirida mustahkamlanadi.

Qarshilik va o'zgarish: Interdiskursivlik, shuningdek, diskurslar ichidagi qarshilik va transformatsiyani tushunish uchun asos yaratadi. Diskurslar kesishishi va o'zaro ta'sir qilishi natijasida ular bir-biriga qarshi turishi va bir-biriga putur yetkazishi mumkin, bu esa bilimning yangi shakllari va muqobil fikrlash usullarining paydo bo'lishi uchun joy yaratadi[3,27].

Xulosa. Mishel Fukoning interdiskursivlik tushunchasi diskurslarning ko'p qirrali va o'zaro bog'liqligini tahlil qilish uchun muhim vositadir. U ijtimoiy hayotning murakkabligi va dinamikligini ta'kidlab, turli xil diskurs shakllarining o'zaro ta'siri orqali bilim va kuchli diksurs qanday ishlab chiqarilishi haqida tushuncha beradi. Fukoning interdiskursivlik konsepsiysi turli xil diskurslarning kesishishlari va o'zaro ta'sirini o'rganish orqali bizning voqelikni shakllantiradigan jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va mavjud ustun diskurs tuzilmalariga qarshi kurashish va o'zgartirish uchun asos yaratadi. Fukoning ishi bizni diskurslarning kesishishi va bir-biriga ta'sir qilish usullari haqida tanqidiy fikr yuritishga undaydi, bilim hech qachon neytral emas, balki har doim ustun munosabatlariga kiritilganligini eslatadi. Bu istiqbol tanqidiy izlanishlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi va dunyomizni shakllantirayotgan ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Interdiskursivlik ob'ektivi orqali biz kuchli va ustun mexanizmlarini, qarshilik va o'zgarish imkoniyatlarini olib, ijtimoiy voqelikni tashkil etuvchi murakkab munozaralar tarmog'ini o'rganishimiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ротанова, Е. В. (2007). Интердискурсивный аспект интерпретации литературоповествовательного текста: на материале прозы Кристины Вольф (Doctoral dissertation, Ротанова Елена Владимировна).
2. Олизъко Наталья Сергеевна Реализация интердискурсивности в семиотическом пространстве // Вестник ЧелГУ. 2012. №22 (276). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/realizatsiya-interdiskursivnosti-v-semioticheskem-prostranstve>
3. Gutting, G. (2005). *Foucault: A very short introduction* (Vol. 122). Oxford University Press, USA.

**O`ZBEK TILIDA MOTAM SEMANTIK MAYDONIGA KIRUVCHI
SO`ZLARNING SINONIMIK MUNOSABATI**

Mushtariybonu Jaloliddinova
Jamiliddin qizi,
Andijon davlat universiteti
4 bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek tilida motam semantik maydoniga oid so`zlarining leksik-semantik xususiyatlari, ular orasidagi sinonimiya hoidasi tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: semantik maydon, sinonimiya, graduonimiya, denotat, signifikat, leksema.

Insonning tashqi olamni idrok etishi va uni tilda aks ettirish muammosi tahlilida til egalarining lisoniy ongi, tafakkuri, xotira imkoniyatlari, shuurida jamlangan leksik birliklar zaxirasi va bu zaxiradagi birliklarning o`zaro munosabati kabilarni tekshirish muhim o`rin tutadi. Chunki bu orqali muayyan birlik insonlar ongida qanday lisoniy figuraga ega ekanligi va unga ta`sir qiluvchi ichki va tashqi omillar; tafakkurdagi lisoniy obrazning davriy tadriji va undagi o`zgarishlar sababini aniqlash mumkin bo`ladi.

Semantik maydon uzvlari bizning ongimizda shakllangan aloqa orqali bir guruhga birlashadi. Masalan, biz tafakkur qilish orqali kitob va nashriyot so`zlarini o`zaro aloqador leksik birliklar ekanligini anglaymiz. Bu aloqa konseptual aloqa deyiladi. Ya`ni bir leksik birlik anglatgan tushuncha orqali boshqa bir leksik birlik anglatgan tushuncha bir-biriga aloqadorligidan bu tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning aloqadorligi yuzaga chiqadi. Bu aloqa semantik maydon qismlari o`rtasidagi munosabatlarni belgilashda asosiy mezon bo`lib xizmat qiladi.

Tildagi ma`noli birliklarning semantikasi yondosh ma`nolar (yaqin, zid, o`xshash) orqali ochib beriladi. Masalan, *motam* leksemasining ma`nosiga shodlik leksemasi asosida aniqlik kiritiladi. Bu jarayonda til birligining assotsiativ ma`nosi muhim o`rin tutadi. Leksemaning assotsiativ ma`nosi leksik ma`no kabi so`z orqali reallashadi, biroq leksik ma`no leksemada o`z ifodasini topsa, assotsiativ ma`no til egalari ongida muayyan leksik birlik bilan bog`liq tarzda shakllanadi.[1, 139.]

“Motam” semantik maydoniga kiruvchi leksemalar orasida o`zaro assotsiativ aloqa mavjud. Motam so`zi, avvalo, chuqur qayg`u, o`lim tushunchasini, so`ng shu holat bilan bog`liq marosim nomi semasini ifodalaydi. Shu asnoda semantik maydon kengaya beradi, yangi uzvlar paydo bo`ladiki, piravordida ular o`zaro semantik jihatdan bog`lanadi: motam – *g`assol* (*mayyitni yuvuvchi*), *oq kiydi* (*marosim*), *surp* (*mato: kafanlash uchun*), *sel kelmoq* (*motam kuni*), *yigirma* (*marosim*), *xotira* (*tadbir*), *qora ramz*, *to`pponcha* (*quroq*), *dor* (*vosita*), *samolyot* (*halokat*), *yurak* (*organ*), *operatsiya* (*jarrohlik*), *rak* (*kasallik*), *yetim* (*ota-onasi yo`q*), *jang* (*urush*), *qotillik* (*odam o`ldirish*), *duel* (*ikki kishi jangi*), *jallod* (*odam o`ldiruvchi*), *igna* (*tikuvchi*), *yiqilmoq* (*halok bo`lmoq*), *bo`lmadi* (*amalg oshmadi*)...

Maydon semantik maydoniga kiruvchi so`zlar qatorini yana davom ettirish mumkin. Yuqoridagi leksemalar muayyan semasi bilan ma`lum paradigmada o`zaro rishtalanadi va shu asosda bir maydon doirasida birlashadi.

Semantik maydonni tashkil qiluvchi a`zolar o`rtasida paradigmatisk va sintagmatik munosabatlar bo`ladi. Bir sathga mansub birliklarning o`zaro ma`lum umumiy belgilar asosida bir paradigmaga, uyaga birlashishi paradigmatisk munosabatni tashkil qiladi. Bu uyadoshlik munosabati ham deyiladi. Leksik sathda uyadoshlik munosabati 2 xil bo`ladi, ya`ni leksemalarning ma`nosi yoki shakli

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

ularni bitta uyaga birlashtirishi mumkin. Leksik birliklarning paradigmatik munosabatini belgilashda ko`proq ma`no umumiyligi belgisi hisobga olinadi.

Semantik maydonda eng ko`p uchrovchi paradigmatik munosabat turlaridan biri sinonimiya (ma`nodoshlik) hodisasiidir. Semantik maydondagi har bir sinonimik qator o`ziga xos mikro paradigmadir. “Motam” semantik maydoni tarkibida quyidagi sinonimik paradigmalar mavjud:

1. Motam – aza – ta`ziya.
2. Azador – ta`ziyali
3. Dafn etmoq – ko`mmoq – qo`ymoq
4. Go`r – qabr – mozor – lahad
5. Mozor – qabriston – go`riston – mozoriston
6. O`lik – murda – jasad
7. O`lim – vafot – qazo
8. O`lmoq – qazo qilmoq – uzilmoq – jon bermoq – dunyodan o`tmoq – bu dunyodan hijrat qilmoq – olamdan o`tmoq (ketmoq) – cho`kmoq – qulamoq – omonatini topshirmoq – qaytmoq – qaytish qilmoq – yostig`i qurimoq – o`zini topshirmoq – o`tib qolmoq – bu dunyo bilan xayrlashmoq – yuragi urishdan to`xtamoq – yorug` dunyoni tark etmoq – yer tishlamoq – yashashdan to`xtamoq – Xudoning hukmini bajarmoq – xazon bo`lmoq – vafot etmoq (qilmoq) – u (narigi) dunyoga ketmoq to`ng`iz qo`pmoq – safar qilmoq – rixlat qilmoq – qurban bo`lmoq – qazosi to`lmoq – paymonasi to`lmoq – oradan ketmoq – olamdan ko`z yummoq – nobud bo`lmoq – nafasi tindi – nafasi uzildi – ko`z yummoq – kuni (umri) bitmoq – kuni to`lmoq – juvonmarg bo`lmoq – jonsizlanmoq – jonini jannatga yubormoq – joni uzilmoq (chiqmoq) – jon taslim qilmoq – joniga qasd qilmoq – jannati bo`lmoq – hayat bilan vidolashmoq – halok bo`lmoq – fano bo`lmoq (topmoq) – engak tashlamoq – dunyodan ko`z yummoq – dunyodan ko`zi ochiq ketmoq – bo`lmadi – boshi ketmoq – boqiy dunyoga rixlat qilmoq – bandalik qilmoq – ajali yetmoq.

A.Sobirovning ta`kidlashicha, sinonimlar bilan bog`liq paradigmalarning hosil bo`lishida quyidagilarni hisobga olish zarur:

Birinchidan, so`z uchun asos vazifasini o`tayotgan idrok obyekti – denotatni;

Ikkinchidan, tushuncha – signifikantni;

Uchinchidan, ifoda (leksema)ni. [2, 132.]

Aksariyat sinonimik qatorlarda denotatda va signifikatda hech qanday o`zgarish bo`lmaydi, faqat ifoda (leksema) almashadi. Bu holat, asosan, olam va inson bilan bog`liq semantik maydonlarda, ot so`z turkumiga oid sinonimik qatorlarda kuzatiladi.

Denotat – signifikat – **motam** (1-leksema), **aza** (2-leksema), **ta`ziya** (3-leksema)

Ayrim hollarda denotatda o`zgarish kuzatiladi va shunga mos tarzda signifikat va ifoda ham o`zgaradi. Bu holatdagi ma`nodosh so`zlar mavhum xususiyatga ega bo`ladi. Harakat-holatni, belgini insonning ruhiy, maishiy, ijtimoiy hayoti bilan bog`liq bo`lgan tushunchalarni ifodalovchi semantik maydonlarda kuzatiladi: o`lmoq – qazo qilmoq – uzilmoq – jon bermoq – dunyodan o`tmoq – bu dunyodan hijrat qilmoq – olamdan o`tmoq (ketmoq) – cho`kmoq – qulamoq – omonatini

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

topshirmoq – qaytmoq – qaytish qilmoq – yostig'i qurimoq – o'zini topshirmoq – o'tib qolmoq – bu dunyo bilan xayrashmoq – yuragi urishdan to'xtamoq – yorug' dunyonи tark etmoq – yer tishlamoq.

Keyingi yillarda so'z leksik ma'nolaridagi paradigmatic munosabatni semantik jihatdan eslatuvchi yana bir hodisa – lug'aviy darajalanish (graduonimiya) hodisasi mavjudligi, unda so'zlar ma'no farqlashiga asoslanishi ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etildi.[3, 360.] Leksik sinonimiya ma'nolari bir xilligiga, o'zaro yaqinligiga hamda o'xshashligiga asoslansa, graduonimiya farqlilik omillariga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, sinonimiya hamda graduonimiya hodisalari bir-biridan keskin farq qiladi. Lekin, shunga qaramasdan, ularning orasida ma'noviy munosabat ham mavjud bo'ladi. Bu jihatdan professor A. Nurmonovning quyidagi fikri e'tiborga loyiq: "Har bir leksemaning mazmuniy mundarijasi birlashtiruvchi va farqlovchi semalar munosabatidan tashkil topadi. Birlashtiruvchi sema bu leksemaning muayyan leksik-semantik guruhga mansubligini, farqlovchi sema esa ma'lum leksik-semantik guruh tarkibidagi ushbu leksemaning oziga xosligini ifodalaydi".

Aslida sinonimlarning biri o`rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyati mavjud bo'lsa, denotat ma'nolarga asoslangan graduonimlar orasida darajalanish farqlari kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Masalan, **yig'lamoq** semasi ko'z yoshini to'kmoq, ko'z yoshi qilmoq, dod solmoq, yum-yum yig'lamoq, qon yig'lamoq, zor yig'lamoq kabi leksemalar orqali ifodalanadi va bu birliklar o'zaro graduonimik munosabatda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Мерос., 2017.-139 в.
2. Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатхи системалар системаси тамоили асосида тадқиқ этиш. –Тошкент: Маънавият, 2004. – 160 в.
3. Раҳмонов F. Синонимлар қаторида градуонимиянинг ифодаланиши / Ўзбек тили ва адабиёти. 2012-йил, 3-сон. 35-39-в.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. З жилдлик.Т.: Akademnashr. З-жилд.149-б.

BOLA NUTQI RIVOJLANISHNING UMUMIY SHAKLLARI

**Andijon Davlat Chet Tillar Instituti,
Magistratura bo'limi Lingvistika yo'nalishi
II-bosqich magistranti Jo'rayeva Dilnavoz**

Annotatsiya: Dunyo tilshunosligida til va ruhiyat munosabatdorligi masalasi uzoq davrlardan beri faylasuf va tilshunoslar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Shunga qaramay, uzoq davrlar tilshunoslikda tillarning qarindoshligi masalasi, so'ng tilni, asosan, immanent tarzda o'rganishga bo'lgan harakat uning sub'ektiga e'tiborni susaytirdi. XX asr so'ngi va XXI asr tilshunosligida til antropologik hodisa sifatida

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna	
51.	FONOSTILISTIK O'ZGARISHLARNI BELGILOVCHI EKSTRALINGVISTIK OMILLAR Mamasadikova Mukaddasoy Qaxramonbek qizi	176
52.	RAVISH SO'Z TURKUMIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR Rabbimova Gulchehra Toyir qizi	179
53.	TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI Muxayyoxon Axmedova	182
54.	IDIOMS IN PHRASEOLOGY Nazarova Ziyoda Kattayevna	183
55.	ILOVA KONSTRUKSIALARDAGAP BO'LAKLARINING BAJARIB KELADIGAN VAZIFALARI Hojiyeva Nafosatxon Ilhom qizi	185
56.	ILM-FANDA TERMINYLAR OLAMI Ismanova Odinaxon Urunbayevna	187
57.	THE IMPORTANCE OF INTRODUCING UZBEK NATIONAL CULTURE TO OTHER NATIONS IN TRANSLATION OF LITERARY WORKS O'M.Nortoeva, Sobia Bhutto	189
58.	IKKILAMCHI NOMINATSIYA ORQALI PAYDO BO'LGAN TERMINYLAR Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi	191
59.	M. FUKO INTERDISKURSIVLIK KATEGORIYASINING ASOSCHILARI SIFATIDA Nodirabegim Haydarova Ahtamjon qizi	195
60.	O'ZBEK TILIDA MOTAM SEMANTIK MAYDONIGA KIRUVCHI SO'ZLARNING SINONIMIK MUNOSABATI Mushtariybonu Jaloliddinova Jamoliddin qizi	197
61.	BOLA NUTQI RIVOJLANISHNING UMUMIY SHAKLLARI Jo'rayeva Dilnavoz	200
62.	MURIEL SPARK BADIY NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI M.Z.Djalaldinova	203
63.	POLIKOMPONENTLI QO'SHMA GAPLAR TARJIMASIDA TRANSFORMATSIYALAR A.A.Latibjonov	206
64.	THE NATURE OF PARTS OF SPEECH Abdullahayev Ikramjon Xashimdjanovich Lindawati Mustikasari	208
65.	THE ROLE OF CONNOTATION IN WORLD LINGUISTICS Mirzaabdullahayeva Mahliyo Khosiljon qizi	211
66.	SOME REFLECTIONS ON THE PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING MENTAL ABILITIES OF THE MAN IN THE SYSTEM OF LANGUAGES Toshtemirov Elyor Nuraliyevich Turgunova Erkinoy Ergashevna	214
67.	LINGUACULTURAL EXPRESSION OF STYLISTIC DEVICES IN THE TRANSLATIONS OF THE NOVEL "DAYS GONE BY" BY A. QADIRI Gaybullayeva Sevara Shukhrat qizi	217